

**BOLA NUTQI LEKSIK-GRAMMATIK TOMONINING ONTOGENEZDA
NORMAL RIVOJLANISHI****Kaxharova Malika Maxsudovna***O'zMPU**"Logopediya" kafedrası O'qituvchisi.***Matchanova Sohiba Davron qizi***O'zMPU talabasi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bola nutqi leksik-grammatik tomonining ontogenezda normal rivojlanishi yo'llari bo'yicha psixologik-pedagogik va metodik adabiyotlarni o'rganildi hamda tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: lug'at, muloqot, nutq, psixologik, ontogenez, leksik-grammatik, didaktik, individual, norma.

Аннотация: В данной статье изучается и анализируется техническая, педагогическая и методическая литература по нормальному развитию лексико-грамматического контроля речи ребенка в онтогенезе.

Ключевые слова: лексика, речь, психология, онтогенез, лексико-грамматический, дидактический, индивидуальный, норма.

Abstract: This article examines and analyzes technical, pedagogical, and methodological literature on the normal development of lexical and grammatical control of children's speech during ontogenesis.

Keywords: vocabulary, speech, psychology, ontogenesis, lexical and grammatical, didactic, individual, norm.

Bolaning psixofizik rivojlanishida nutqiy faoliyat muhim rol o'ynaydi. Bolaning o'z ona tilini o'rganishi o'ziga xos ravishda sodir bo'ladi. Bola nutqi rivojlanishining asosiy bosqichi nutq rivojlanishi uchun sezitiv hisoblangan maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Butun dunyoda rivojlanishning sezitiv davri deb 0-6 yosh qabul qilingan.

L.S.Vigotsky [10] nutq rivojlanishining 5 ta sezitiv davrini ajratib ko'rsatadi:

1) 1,5-3 yosh. So'z boyligining tez o'sishi, qo'lning mayda va umumiy motorikasining rivojlanishi.

2) 3-4 yosh. Ongli nutqning paydo bo'lishi, harflar va so'zlar bilan tanishish.

3) 4-5 yosh. Gullar, shakllar, o'lchamlar bilan tanishish, arifmetika, tabiat, musiqa va rasm chizishga bo'lgan qiziqishning paydo bo'lishi,

4) 5-6 yosh. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, bola hayotida yozma nutq rolining oshishi.

5) 8-9 yosh. Nutq madaniyatini takomillashtirish va mustahkamlash.

M.Montessori[11] rivojlanishning quyidagi bosqichlarini ko'rsatadi:

- 1) 0-4 oy. Nutq va nutqiy bo'lmagan tovushlarga munosabat, kattalar nutqiga taqlid qilishga urinish.
 - 2) 1-1,5 yil. Birinchi so'zlarning ko'rinishi, intonatsiyaning farqlanishi.
 - 3) 2-2,5 yil. So'z boyligini faol ravishda to'ldirish. O'z-o'zini ifodalash.
 - 4) 2,5-3 yil. Egosentrik nutq.
 - 5) 3,5-4 yil. Ongli nutq.
 - 6) 4-4,5 yil. Nutq muammoni hal qilish vositasi sifatida.
 - 7) 5 yil. O'qish, his-tuyg'ularni va fikrlarni yozma ravishda ifodalash.
- Ko'rib turganimizdek, bu davrlashtirishlar ko'p jihatdan mos keladi.

Nutqning leksik va grammatik tomoni lug'at va uning grammatik jihatdan to'g'ri ishlatilishini anglatadi. So'zlar tushunchani ifodalovchi asosiy leksik birlikdir. Nutqning leksik tarkibi tilning tarkibiy qismi bo'lib, faol va passiv lug'atni o'z ichiga oladi. Nutqning leksik tomoni bolaning nutqi va aqliy rivojlanish darajasini belgilaydigan nutqiy fikrlash faoliyatidir deydi T.B.Axutina[32].

Lug'at - bu ob'ektlar, hodisalar, harakatlar va atrofdagi voqelik belgilarini bildiruvchi so'zlar (nutqning asosiy birliklari).

Grammatik tuzilish - so'z birikmalari va gaplardagi so'zlarning o'zaro ta'siri tizimi. Grammatik tizimning morfologik va sintaktik darajalari mavjud. Morfologik daraja - so'z yasash va fleksiya usullarini o'zlashtirish qobiliyati. Sintaktik daraja - so'zlarni grammatik jihatdan to'g'ri birlashtirib, gaplar tuzish qobiliyati[21].

Grammatikaning rivojlanishi A.N.Gvozdev, G. N. Ushakova, A. M. Shaxnarovich, D.E.Elkoninlarning [21] asarlarida yoritib berilgan. F.A.Soxin, N.P.Serebrennik, M.I.Popova, A.V.Zaxarova esa ularning ishlarini to'ldirishgan.

Bola uchun grammatikani o'rganish jarayoni murakkab sanaladi, chunki bu jarayon miya yarim korteksining analitik va sintetik faoliyati bilan bog'liq. Ushbu murakkab aqliy faoliyatning rivojlanish mexanizmini, grammatika - dinamik nutq stereotipining o'ziga xos shakli ekanligini I. P. Pavlov ochib berdi.

A. N. Gvozdev[35] grammatika o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rgangan. U o'zining kitobida bola nutqida morfologik va sintaktik jarayonni paydo bo'lishini kuzatib, sharhlaydi. Bu grammatikaning shakllanish jarayonida chaqaloqning eng oddiy so'zlaridan boshlab, maktabgacha yoshdagi bolaning o'zlashtirgan til shakllarini kuzatib borishga yordam beradi.

Tilning grammatik tuzilishini o'zlashtirish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar morfemaning tovush tomonini mo'ljal olishdan, alohida fonematik xususiyatlarini mo'ljal olishgacha bo'lgan yo'lini bosib o'tadi. Bu jarayonda fonematik eshituv yetakchi o'rinni egallaydi. Grammatik tuzilishni shakllantirishda grammatik umumlantirishning shakllanishi asos bo'lib hizmat qiladi. Bu haqida F. A. Soxin quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: Bolalar nutqi kattalar nutqiga taqlid qilish, ularning namunalarni olish va ko'paytirish asosida rivojlanadi.

M. M. Koltsova, E. N. Vinarskaya, N. I. Jinkin, D. B. Elkonin [30] va boshqalarning asarlarida nutqning rivojlanish bosqichlarini ko'rish mumkin.

Dastlabki bosqichda bola og'zaki stimulgacha yo'naltiruvchi refleks shaklida javob beradi ya'ni, boshni aylantirish, ko'zni ochib yumish. Keyinchalik, uning asosida ikkinchi refleks hosil bo'ladi- og'zaki stimulgacha paydo bo'ladi. Nutqni rivojlantirishning ushbu bosqichida bolaning birinchi so'zlari paydo bo'ladi - "g'o'ng'irlash". Ular bola tomonidan eshitilgan so'zning bir qismini ifodalaydi. Bu bosqichda so'z hali grammatik ma'noga ega emas. So'zlar bu bosqichda buyruqni bildiradi (ber, ol), yo ko'rsatmani (u yerda), yoki predmetni (mushuk), yoki harakatni. 1- yil oxiri va 2- yil boshida bolaning hayotida og'zaki til ko'proq kuchga ega bo'la boshlaydi.

1,5 yoshdan 2 yoshgacha bolaning leksik zahirasi jadal ravishda oshib boradi va 2-yil oxiriga kelib bu 300 ga yaqin so'zni tashkil etadi.

Lug'at hajmi nisbati va so'z o'sishi miqdori

1-jadval

Yosh	So'zlar soni	
	E.A.Arkin bo'yicha	A.Shterna bo'yicha
1 yosh	9 ta	-
1,5 yosh	-	100 ta
1 yosh 6 oylik	39 ta	-
2 yosh	300	200-400 ta
3 yosh	-	1000-1100 ta
3 yosh 6 oylik	1110 ta	-
4 yosh	1926	1600 ta
5 yosh	-	2200 ta

Bolalar so'zlari rivojlanishining birinchi bosqichi shartli reflekslar turi bo'yicha ketadi. 1,5 yoshdan 2 yoshgacha bola lug'at boyligi faol ravishda o'sib boradi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda lug'at hajmi va uning o'sishi o'rtasidagi juda ko'p tafovutlar bor, chunki yashash sharoitlari va ta'limga qarab bolalarda lug'at rivojlanishining individual xususiyatlari mavjud.

4 yoshli bola lug'ati A.N.Gvozdev bo'yicha 2-jadval

So'z turkumi	Lug'atdagi miqdori %	So'z turkumi	Lug'atdagi miqdori %
Ot	50,2	Son	1,9
Fe'l	27,4	Bog'lovchi	1,2
Sifat	11,8	Qo'shimcha	0,9
Ravish	5,8	Yuklama	0,9

Grammatikaning sintaktik tomonini N.A.Ribnikov, A.N.Gvozdev, A.M.Leushina, V.I.Yadeshkolar[35] o'rgangan.

Dastlab, predmet va faoliyatni bildiruvchi (ber, dada, mana) „so'z-gaplar" paydo bo'ladi. Bunda so'zlar mimika, jest, harakat bilan to'ldirilib, tugallangan ma'noni bildiradi. Asta-sekin so'zlar, so'zlar zanjiriga umumlashib gapga aylanadi. N.P.Serebrenniko[37] ma'lumotiga ko'ra, bola gap tuzishga o'tishi uchun uning lug'atida 40-60 ta so'z bo'lishi kerak.

1 yosh 8 oy - 1 yosh 10 oylikda bolada har bir so'z predmet yoki faoliyatni bildiruvchi 2 so'zdan iborat gaplar paydo bo'ladi. 2 yoshda sodda tuzilgan 3, 4 so'zdan iborat gaplar paydo bo'lishini kuzatishi mumkin.

1 yosh 9 oylikda bolada birinchi bog'lovchisiz murakkab gaplar paydo bo'ladi. Bog'lovchili murakkab gaplar 2 - 3 yoshda paydo bo'ladi. Odatda, murakkab gaplar 2 sodda gapdan iborat bo'ladi. Teng bog'lovchi va ergashtiruvchi bog'lovchilar parallel ravishda o'zlashtiriladi.

Avval bola tuzilishi jihatdan oddiy gaplardan, keyinchalik, murakkab qurilmalardan foydalanadi.

Hayotining 4-yilida bola kamdan-kam holda murakkab gaplardan foydalanadi, ular ko'proq sodda tuzilgan gaplarni ishlatadi. Bolalar bog'langan qo'shma gaplardan osonlikcha foydalanadi. Masalan: „Biz buvim bilan uyda qoldik, ular esa o'z ishlari bilan ketishdi" (4 yosh 5 oylik).

Bog'langan qo'shma gap turlari va mazmuni 5 yoshda murakkablashadi. Vaqt, sababni bildiruvchi ergash gaplardan foydalanadi, masalan: „U ishga bormadi chunki dam olish kuni edi."

A.N.Gvozdev[35] o'zining ishlarida nutqning grammatik tomonining rus tilidagi rivojlanish bosqichlarini ko'rsatadi.

Birinchisi, amorf so'zlardan tashkil topgan jumlar davri. So'z asoslari barcha hollarda o'zgarmas shaklda qo'llanadi. (1 yosh 3 oylikdan 1 yosh 10 oylikkacha)

Ikkinchisi, grammatik kategoriyalarning shakllanishi bila bog'liq bo'lgan gapning grammatik tuzilishini o'zlashtirish davri. (1 yosh 10 oylik - 3yosh)

Uchinchisi, turlash va tushlash bilan bog'liq rus tilining morfologik tizimini o'zlashtirish davri. (3 yosh - 7 yosh)

T.B.Filicheva va A.R.Sobolevalarning kitoblarida A.N.Gvozdev ma'lumotlariga asoslanib grammatikaning rivojlanishi sharhlanadi[26].

Qo'shimchalar 3-4 yoshda nutqda mustaqil qo'llana boshlanadi. Maktabgacha yosh oxirida bolalar grammatik tuzilishni to'liq o'zlashtirgan bo'ladilar.

Alekseeva M.M va Yashina B.I o'zlarining kitoblarida bola hayotining 3-yilida grammatikaning barcha tipik ko'rinishlarini o'zlashtiradi deb yozishadi. Ular ham A.N.Gvozdev[35] ma'lumotlariga tayanib grammatika rivojlanishi haqida quyidagicha fikr bildiradilar: „Morfologik elementlar nutqda juda erta ko'rina boshlaydi”(1 yosh 4 oylik).

Grammatik tuzilishni o'zlashtirish bolada grammatik kategoriyalarni o'zlashtirish bilan boradi. Alohida katagoriyalarning ma'nosini o'zlashtirishga vaqt va ketma-ketlilik kerak bo'ladi. Bolalarda mavhum tushunchalarni o'zlashtirish qiyinchilik tug'diradi. A.N.Gvozdev : „Birinchi navbatda aniq ma'no bildiradigan so'zlar o'zlashtiriladi” deb yozadi.

Avval bola ot so'z turkumini va kichraytirish-erkalash (uy-uycha) shaklini o'rganadi. Keyin, bola istaklarini bildirishi uchun muhim hisoblangan buyruq – istak so'zlarini ham erta o'zlashtiradi. Predmetlarning joylashuvi zamon, harakat egalari haqidagi munosabatlar qiyinroq o'zlashtiriladi (2 yosh 10 oylik)

Shunday qilib, nutqning grammatik tomonini shakllanishi bolaning asosiy faoliyati doirasida rivojlanadi va davrlarga bo'linadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayupova M.Y. Logopediya: darslik, Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.

2. Khakharova Malika Maksudovna (2024). Technologies for the development of the lexical-grammatical aspects of the speech of children with severe speech defects. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16-20. ISSN Online: 2771-8948. Volume 25.

3. Выготский Л. С. Проблема возраста // Выготский Л. С. Собрание сочинений: В 6-ти т.; Т.4. – М.: Педагогика.

4. Тимонен Е.И. Формирование лексико-грамматических навыков на занятиях по подготовке к обучению грамоте в условиях специальной группы детского сада для детей с тяжелыми нарушениями речи (подготовительная группа) / Е. И. Тимонен – СПб.: Детство-Пресс, 2004.

5. Поваляева, М. А. Справочник логопеда [Текст] / М. А. Поваляева. Ростов-на-Дону : «Феникс», 2002.